



BUXORO  
DAVLAT  
1930  
UNIVERSITETI

ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

*ilmiy-nazariy va metodik jurnal*

## 1/2017



**MUNDARIJA-SODERZHANIE-CONTENTS**

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>	
S.Qahhorov, H.Jo'rayev. Mediata'limning rivojlanish bosqichlari	8
A.Xodjayev, A.Xoshimov, S.Yusupxodjayev. Oliy ta'limda o'quv jarayonini optimal tuzishning konseptual asoslari	14
M. Mirsoliyeva. Pedagog kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlari	18
G. Boymurodova. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini tashkil etish hamda boshqarishda axborot texnologiyalarining o'imi	23
A.Sultonov. Ta'lim jarayonining sifati – o'qitish tizimini takomillashtirish sifatida	27
Sh. Abdullayeva. O'qituvchining emotsional barqarorligini psixologik qo'llab-quvvatlash	32
O. Usanova. OTM o'qituvchisining pedagogik faoliyatida nutqiy va kasbiy kommunikatsiyasi	36
N. Tosheva. O'quvchilar bilish faoliyatlarini rivojlantirish jarayonining mazmuni	42
I. Moskalev. Ta'limda subyekt-faoliyatli yondashuvni qo'llash Ukraina mudofaa kuchlari operativ-taktik ofitserining amaliy tafakkurini rivojlantirishning metodologik sharti sifatida	47
O.Ribchuk. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida o'qituvchilarning maxsus kompetentligini rivojlantirish muammolarini pedagogik tadqiq etish metodikasi	53
Y. Prikhodko. Harbiy ta'lim sohasini monitoring qilish	59
V.Yagupov, I.Kozubsov. "Ad'yunktlar metodologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi" ilmiy maktabida ad'yunktlar metodologik madaniyatli motivatsion-qadriyatli komponentini rivojlantirish natijalari	63
N.Xalilova. Refleksivlik umumiy qobiliyatlar tizimi sifatida	70
O'. Shamsiyev. Bolalikdan maktab sari	75
G. Yunusova. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi	78
R.Mullaxmetov, M.Innazarov. Ta'lim sifati menejmenti tizimining samaradorligini oshirishda tashxis texnologiyalarining ahamiyati	81
T.Bondarenko. Muhandis-pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni monitoring qilish tizimi o'quv muassasasi informatsion ta'lim muhiti komponenti sifatida	85
A.Bekirova. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv subyektiligi metodologik muammo sifatida	91
L.Danilova. Talaba-yoshlarda mehr-shafqat tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy shartanganligi	99
U. O'rinov. Ijtimoiy hamkorlikning tarixi, rivojlanishi va uning pedagogik-psixologik jabhalari	104
N. Jumayeva. Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining o'imi	110
A. Alimov. Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni qo'llash	113
Sh. Farmonova. O'quv-biluv faoliyati va biluv topshiriqlarining tiplari	119
Sh. Quliyeva. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish	123
D.Ilxamova. Bolalarda agressivlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	128
J.Amonov. Rahbar faoliyatida boshqaruv tizimining psixologik tuzilmasi	131
O.Avezov. "Psixologiyada motivatsiya tushunchasi va uning asosiy muammolari" mavzusining nazariy tahlili	135
Z.Qorayev. A.Navoiy asarlarida o'zbek xarakterining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari talqini	141
S.Safoyeva. Talabalarni o'quv faoliyatida faollashtirishda oyin texnologiyalaridan foydalanishning o'imi va ahamiyati	145
G'. Sayfullayev, L.Alimova. Ekskursiyalar va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslikni o'rganishdagi o'imi va ahamiyati	148
<b>IJTIMOIY-GUMANITAR TA'LIM</b>	
Sh.Hayitov, B.Rizayev. Amir Abdulahadxonning Rossiya imperiyasida qurdirgan inshootlari	152
A.Sharipov. Ta'lim tizimidagi islohotlar: falsafiy fanlardan darslarni yangi sifat bosqichiga ko'tarish	156
G.Qo'chqorova. Fuqarolik ongi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'imi	163
M.Janobilova. Umuminsoniy qadriyatlar va demokratik prinsiplar uchun kurash	167
J.Jo'rayev. Mamlakat oliy ta'lim muassasalarida sotsiologiya fani o'qitilishining dolzarb masalalari	171
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR</b>	
T.Rasulov. Musbat aniqlangan matritsalar uchun ba'zi tengsizliklar	175
G.Xudonazarova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfida kimyodan tajribaviy masalalarni yechish metodikasi	184
M.Ergashev, Sh. Xudoyberdiyev. Organik kimyodan amaliy mashg'ulotlarni o'tishda "Piramide" texnologiyasini qo'llash	190
E. Atoyev. Kimyo fanlarini o'qitishda virtual kimyoviy eksperimentlarni joriy etish	194
M.Badiyev, A.Shukurov, D.Mamurova. Chizmachilik xonasini jihozlashning o'quvchilarga psixologik va pedagogik ta'siri	198
<b>TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR</b>	
R. Zaripova. Frazologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi	203
N. Bekova. Navoiyning ulug' muddaosi	209
O.Adizova. Aziz Qayumov ilmiy maktabining tahlili va tadqiqot yo'nalishi	213
G.Hojlyeva. Chet tili amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	218
N.Qayumova. Til muloqot vositasi sifatida	229
I. Davronov. Algoritmik mashq va uning xususiyatlari	233
<b>IQTISODIY TA'LIM</b>	
B.Navro'z-zoda. Master-klass texnologiyasida fermerlarga biznes-reja tuzishni o'rgatish	237
<b>TAHRIRIYAT MEHMONI</b>	
M.Mahmudov, S.Avezov. Kitob-oftob	244
<b>TAQRIZ</b>	
Sh. Hayitov. O'zbekiston-Turkmaniston: o'zaro hamkorlik va qardoshlik aloqalari chorrahasida	246
<b>E'LONLAR</b>	





**Mansur ERGASHOV**  
Buxoro davlat universiteti Kimyo kafedrasida dotsenti,  
kimyo fanlari nomzodi



**Shuhrat XUDOYBERDIYEV**  
Buxoro davlat universiteti Kimyo kafedrasida o'qituvchisi

### ORGANIK KIMYODAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI O'TISHDA "PIRAMIDA" TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH (Akademik litseylar misolida)

*Maqolada akademik litsey o'quvchilariga organik kimyodan amaliy mashg'ulotlarni o'tishda "Piramida" texnologiyasidan foydalanish yo'llari bayon etilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** organik kimyo, amaliy mashg'ulot, pedagogik texnologiya, noan'anaviy dars.

*В статье излагаются пути использования технологий «Пирамида» в проведении практических занятий по органической химии в академическом лицее.*

**Опорные понятия:** органическая химия, практическое занятие, педагогическая технология, нетрадиционный урок.

*In article is stated the ways of using the "Pyramid" technologies in conducting the practical classes for organic chemistry in the academic lyceum.*

**Supporting concepts:** organic chemistry, practical work, pedagogical technology, non-traditional lesson.

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish orqali jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan ekanligi hech birimizga sir emas. Uzluksiz ta'lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhim omildir. Hozirgi vaqtda barcha o'quv fanlari ta'limini zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning maqbul yo'llari izlanmoqda.

XXI asrda ta'lim tizimi islohotlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarga faqat bilim berishni maqsad qilib qo'ygan an'anaviy darslarni mazmunan hamda shaklan o'zgartirish zarurati paydo bo'ldi. Noan'anaviy darslarning asosiy maqsadi talabalarning mustaqil bilim olish mexanizmiga asoslanganligidadir. Noan'anaviy darsda tanlangan dars mavzusi bo'yicha o'quvchi o'z nuqtayi nazarini bayon etadi, garchi xato bo'lsa ham o'quvchining fikri oxirigacha eshitaladi, dars bosqichlari bo'lmaydi, aniq bir ta'limiy metod yoki usul hukmronlik qilmaydi, bunda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi; ta'lim vositasi sifatida birgina darslikdan emas, balki qo'shimcha materiallardan foydalaniladi. Bunday darslardan foydalanilganda o'quvchilarning dars mavzusini o'zlashtirib olish imkoniyati kengayadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashi va dars bosqichlarida o'rinli foydalana olish, birinchi navbatda, ta'lim jarayonining maqsadga erishuvini ta'minlaydi. Ikkinchidan, o'quvchilar bilim olishga erishadi. Pirovard natijada, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi bo'lgan ta'lim samaradorligini oshirishga erishiladi.

Biz quyida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda noan'anaviy darslardan "Piramida" o'yini tashkil etish usuliyoti xususida ba'zi mulohazalarimizni bayon etamiz.

O'quv fan  
Dars mavzusi  
Dars maqsadi  
a) alkanlar  
b) o'quvchi  
qilish;  
d) o'quvchi  
masala yechish  
e) o'quvchi  
tirish.  
Dars usuli  
Boshqa fanlar  
Dars bosqichi  
1. Tashkil  
2. Piramid  
3. Mustaqil  
4. Baholalar  
Darsni o'tirish  
Guruh  
ladi. Piramid  
4 ta; III usul  
lamlar ustidagi  
masalaga  
qo'yiladi.  
Piramida

Bu usul  
Har bir  
konvertlar  
I ustun  
II ustun  
III ustun  
IV ustun  
V ustun  
O'yin  
chalardan



O'quv fani: Organik kimyo.

Dars mavzusi: To'yingan uglevodorodlar.

Dars maqsadi:

- a) alkanlar, ularning nomlanishi, olinishi va xossalari o'ld bilimlarni umumlashtirish;
- b) o'quvchilarga iqtisodiy tejamkorlik, ekologik tarbiya berish, ularning kasb tanlashida hamkorlik qilish;
- d) o'quvchilarda bilish qobiliyatiga ishonch hosil qilish. Talabalarni mulohaza yuritishga, fikrlashga, masala yecha olish qobiliyatlarini hosil qilishga o'rgatish;
- e) o'quvchilarni mustaqil o'qish-o'rganish, ijodiy izlanishga doir ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Dars usuli: no'ananaviy dars (piramida o'yini)

Boshqa fanlar bilan bog'liqligi: matematika, geometriya, fizika, biologiya


Dars bosqichlari:

1. Tashkiliy qism: o'rtacha 5 daqiqa.
2. Piramida o'yini: o'rtacha 60 daqiqa.
3. Mustahkamlash: o'rtacha 10 daqiqa.
4. Baholash va yakunlash: o'rtacha 5 daqiqa.

Darsning borishi:

Guruh 5 nafar o'quvchidan iborat 4 ta guruhga bo'linadi va har bir guruhning o'z piramidasi bo'ladi. Piramida 5 ustundan iborat bo'lib, har bir ustun bo'laklarga ajratilgan, ya'ni I ustun 5 ta; II ustun 4 ta; III ustun 3 ta; IV ustun 2 ta va V ustun 1 ta. Jami bo'lib 15 ta bo'lak hosil bo'ladi va har bir bo'laklar ustunlar hisobiga o'quvchilarga masalalar beriladi. Piramidaning I ustunidagi har bir yechilgan masalaga 2 ball; II ustunga 2,5 ball; III ustunga 3,0 ball; IV ustunga 3,5 ball; V ustunga 4,0 ball qo'yiladi.

Piramida ustunlar bo'yicha pastdan yuqoriga ko'tarilgan sari masalalarning murakkabligi oshadi.



Bu usul quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Har bir ustun bo'yicha masalalar bloki tuziladi, ular raqamlangan holda rangli qog'ozlarga yozib, konvertlarga solinadi. Masalan:

I ustun uchun raqamlar yozilgan qog'ozlar oq rangli, shakli aylana;

II ustun sariq rangli, to'rtburchak;

III ustun uchun yashil, shakli uchburchak;

IV ustun uchun qora rang, ovalsimon;

V ustun uchun qizil rang, romb ko'rinishda yasaladi.

O'yin I ustun uchun ajratilgan masalalarni yechishdan boshlanadi, buning uchun piramida guruhchalardan bir a'zo kelib ustunchalarga ajratilgan masalalar to'plamidan masala yozilgan raqamni oladi.



Raqam tanlangach, o'qituvchi shu raqamga mos keladigan masalani o'qiydi va o'quvchilar berilgan masalani yechishni boshlaydi. Masala javobini qaysi piramida a'zolari tez topsa, o'sha javobga ajratilgan ballni oladi, shu tariqa 5 ta ustundagi masalalar yechiladi. So'ngra har bir guruh to'plagan ballar hisoblanadi va barcha talabalar bir vaqtning o'zida xolisona baholanadi. Agar masalalardan birortasi o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirsa, o'qituvchi shu masalani darsni mustahkamlash bosqichida tushuntirib, masalani to'g'ri yechish yo'llarini asoslab beradi.

**Mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya qilinadigan Piramida masalalari quyidagilar:**

**1-tur masalalari:**

1. 2-metil-2-yodbutan va 2-metil-2-yodpropan natriy metali bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) qanday alkanlar hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini yozing va hosil bo'lgan mahsulotni sistematik nomenklaturaga ko'ra nomlang.
2. 11 (n.sh.) alkanning og'irligi 2,59 g bo'lib, faqat birlamchi va uchlamchi uglerod atomidan iborat bo'lgan uglevodorodning molyar massasi va nomini aniqlang.
3. Stexiometrik nisbatda olingan alkan va kisloroddan iborat 36 ml aralashma reaksiyasi natijasida 18 ml karbonat angidrid hosil bo'lsa, alkan formulasini aniqlang.
4. To'yingan uglevodorodni yoqish uchun bug'ining hajmiga nisbatan 5 marta katta hajmdagi kislorod sarflandi. 2,24 l shunday uglevodorodni yoqish uchun qancha hajm (n.sh.) havo kerak bo'ladi.
5.  $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$  uglevodorodni ratsional nomenklatura bo'yicha nomlang.

**2-tur masalalari:**

1. Ikkilamchi butilbromid va uchlamchi butilbromid natriy metali bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) qanday alkanlar hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini yozing va hosil bo'lgan mahsulotni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
2. Massa nisbatlari 1:3:11 bo'lgan metan, etan va propandan iborat bo'lgan 240 g gazlar aralashmasining hajmini (n.sh.) va etanning hajmiy ulushini hisoblang.
3. Necha xil  $\text{R-COONa}$  tarkibli moddaga  $\text{NaOH}$  ta'sir ettirib  $\text{C}(\text{CH}_3)_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$  tarkibli uglevodorod olish mumkin?
4. Uglerod va vodorod atomlar soni nisbati 0,35:1 bo'lgan etan va propandan iborat 6,72 l (n.sh.) aralashma yonishidan hosil bo'lgan gaz 110g 40% li natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishdi. Reaksiya mahsulot(lar)ning formulasi va massasini aniqlang.

**3-tur masalalari:**

1. 2-brom-2-metilpropan va 2-brom-2,3-dimetilbutan natriy metali bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) qanday alkanlar hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini yozing va hosil bo'lgan mahsulotni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
2. Tarkibida 18% qo'shimchalari bo'lgan 200 g natriy atsetatdan olingan metanni to'la yondirish uchun qancha hajm (n.sh.) havo sarflanadi.
3. Uglerod va vodorod atomlar soni nisbati 1:2,8 bo'lgan etan va propandan iborat 4,48 l (n.sh.) aralashma yonishidan hosil bo'lgan gaz 80g 40% li natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishdi. Reaksiya mahsulot(lar)ning formulasi va massasini aniqlang.

**4-tur masalalari:**

1. 3-brom-2,4-dimetilpentan va 2-brom-3,3-dimetilbutan natriy metali bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) qanday alkanlar hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini yozing va hosil bo'lgan mahsulotni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
2. Uglerod va vodorod atomlar soni nisbati 1:2,8 bo'lgan etan va propandan iborat 4,48 l (n.sh.) aralashma yonishidan hosil bo'lgan gaz 80g 40% li natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishdi. Reaksiya mahsulot(lar)ning formulasi va massasini aniqlang.

**5-tur masalasi:**

1. Uglerod va vodorod atomlar soni nisbati 1:3,5 bo'lgan metan va etandan iborat 10,08 l (n.sh.) aralashma yonishidan hosil bo'lgan mahsulot 60 g 40% li natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishdi. Reaksiya mahsulot(lar)ning formulasi va massasini aniqlang.

Piramida o'yinini fan bo'yicha boblarni yakunlagach yoki oraliq nazorat o'tkazishda nazariy savollar berish bilan ham tashkil etish mumkin.

Xulosa oshirish, da fikrlash do

1. Сай
2. Фар
3. Маш
4. Абди
5. Шой



Xulosa qilib aytganda, piramida o'yini orqali o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, dars jarayonida faolligini kuchaytirish, shuningdek, bilim darajasini hamda ularning mustaqil fikrlash doirasini kengaytirishga imkon yaratiladi.

#### Adabiyotlar

1. Сайидахмедов Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т., 2003.–160 б.
2. Фарберман Б.А., Мусина Р.Т., Жумабоева Ф.А. Олий ўқув юрларида ўқитишнинг замонавий усуллари. – Т., 2002.–192 б.
3. Машарипов С., Тиркашев И. Кимё. (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун) – Т.: Ўқитувчи, 2005. – 304 б.
4. Abdusamatov A., Mirzayev R., Ziyayev R. Organik kimyo. – Т.: O'qituvchi, 2011.
5. Shoymardonov R.A., Ergashov M.Y. Organik kimyo. – Т.: Muharrir, 2013.– 502 б.